



2022-yil 26-iyul

Navoiy shahri

PRESS-RELIZ

2022-yil 26-iyul kuni Navoiy shahridagi “NKMK tarixi” muzeyida “Navoiy kon-metallurgiya kombinati” aksiyadorlik jamiyati faoliyatining 2022-yil 1-yarim yilliklari yakunlari bo‘yicha ommaviy axborot vositalari vakillari va jurnalistlar uchun matbuot anjumani o‘tkazildi.

Matbuot anjumanida “NKMK” AJ Byudjetlashtirish va kontrolling bo‘limi boshlig‘i Umidjon Kostayev, Jamoatchilik bilan aloqalar bo‘yicha direktor Xolmamat Raupov, OAV vakillari va jurnalistlar ishtirok etishdi.

“Navoiy kon-metallurgiya kombinati” aksiyadorlik jamiyati mamlakatimizdagi yirik sanoat korxonasi hisoblanadi. Korxonaning ko‘p ming kishilik jamoasi shu yilning o‘tgan 1-yarim yilligida ham oldiga qo‘ygan vazifalarni sharaf bilan ado etib, rejalarni ortig‘i bilan bajarishga erishdi. Xususan, yarim yillikda kombinatda 28,9 trln so‘mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi.

Hisobot davrida oltin ishlab chiqarish bo‘yicha prognoz ko‘rsatkichi to‘liq bajarilib, o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 107,4 foizni tashkil etdi.

Bugungi kunda kombinat mamlakatimizdagi eng yirik soliq to‘lovchi hisoblanadi. Birgina, shu yilning o‘tgan yanvar-iyun oylarida 15 trillion so‘mlik byudjetga to‘lovlar amalga oshirilib, prognoz ko‘rsatkich 102,5 foizga bajarildi.

Kombinat faoliyatida Investitsion dastur alohida o‘rin tutadi. Buning hisobiga ko‘plab yangi loyihalar ishga tushirilmoqda. O‘tgan olti oyda ushbu dasturga kirgan loyihalar bo‘yicha qariyb 252 mln dollarlik mablag‘ o‘zlashtirilib, 1 510 ta yangi ish o‘rinlari yaratildi. Korxonada yildan-yilga mahalliy lashtirish dasturi ham rivoj topib borayapti. Uning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi hisobiga ma‘lum yutuqlarga erishilmoqda. Jumladan, mazkur dasturdagi 140 ta loyiha doirasida 282,6 mlrd so‘mlik mahsulot ishlab chiqarildi va tarmoqlararo sanoat kooperatsiyasi doirasida qariyb 2,3 trln so‘mlik mahsulot xarid qilindi.

Mahsulot tannarxini kamaytirish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar ijrosi mahsulot tannarxini 492,4 mlrd so‘mga yoki 5,8 foizga kamaytirish imkonini berdi.

Matbuot anjumanida OAV vakillari va jurnalistlarning savollariga atroflicha javoblar berildi.

Murojaat uchun ma‘lumotlar:

“NKMK” AJ Matbuot xizmati, Ish telefonlari: +99879 227-75-88, 227-74-73

“NKMK” AJ rasmiy veb-sayti: www.ngmk.uz

“NKMK” AJning ijtimoiy tarmoqlardagi rasmiy sahifalari:

t.me/ngmkofficial, www.fb.com/ngmkofficial, [instagram.com/ngmk.official](https://www.instagram.com/ngmk.official), www.youtube.com/nkmkofficial